





## NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar



Hisobot davrida asosiy kapitalga 7131,0 mlrd.so'mlik investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 86,5 % jalb qilingan mablag'lar, 13,5 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ta'minlandi.






## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi – hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 33,2% ni tashkil etgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar umumiy hajmidagi ulushi – 6,4% ni, aholi mablag'lari – 13,0% tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari – 10,7%, korxonalar mablag'lari – 13,6%, respublika byudjeti – 2,8%, davlat maqsadli jamg'armalari – 4,7%, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – 15,5%, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi – 0,1% .

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar  
(umumiy hajmdagi ulushi,%)





## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari


	Mrd.so'm	O'sish surati, %	Umumiy hajmga nisbatan % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari</b>	<b>7131,0</b>	<b>171,2</b>	<b>100,0</b>
Respublika byudjeti	202,0	120,8	2,8
Davlat maqsadli jamg'armalari	339,4	237,6	4,7
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	9,3	132,8	0,1
Xukumat tomonidan kafolatlangan chet-el investitsiyalari va kreditlari	2369,0	184,6	33,2
Korxonalarining mablag'lari	966,1	110,4	13,6
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	763,4	142,5	10,7
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	453,6	261,9	6,4
Axoli mablag'lari	926,1	96,0	13,0
Tiklanish va tarqiyot	1102,1	X	15,5





## Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalar tumanlar kesimida mlrd.so'mda




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari To'raqo'rg'on tumanida kuzatildi, ularning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 martaga oshdi, bu esa issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi bilan bog'liqdir.





## Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar




Asosiy kapitalga investitsiyalarning rivojlanishi hali ham To'raqo'rg'on tumanida hukmronlik qilmoqda. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 45,7 foizi o'zlashtirildi. Shunga qaramay, Namangan viloyatida umumiy hajmda Namangan shahri 21,1 foizni tashkil etdi.






## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra qurilish-montaj ishlari 3735,0 mlrd.so'mga etkazildi, asbob-uskunalar va jihozlar 3152,9 mlrd.so'mga, boshqa kapital ishlar va xarajatlar esa 243,1 mlrd.so'mga yetdi.




*Tax System*



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi tumanlar kesimida mlrd.so'mda


■ Qurilish montaj ishlari ■ Mashina asbob-uskunalar ■ Boshqalar



Asosiy kapitaldagi investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5479,6 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalarning 76,8 foizini tashkil etdi.

Mavjud ob'ektlarni rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishni kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1302,1 mlrd.so'mni yoki umumiy hajmining 18,3% ni tashkil etdi. Qolgan 4,9% yoki 349,3 mlrd.so'm boshqa sohalarga yo'naltirildi

### Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga Investitsiyalar % da





Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida elektr va gaz ta'minoti yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohada barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 3363,7 mlrd.so'm yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 47,2 foizi o'zlashtirildi. Uy-joy qurilishi umumiy qiymati 1153,9 mlrd.so'mni yoki umumiy hajmning 16,2% ni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalda chet-el investitsiyalari va kreditlari


mlrd.so'm

	Jami xori- jiy investit- siyalar va kreditlar mlrd. so'mda	shundan:		To'g'ridan- to'g'ri va boshqa xo- rijiy inves- titsiyalar va kredit- lar	shundan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2822,6</b>	<b>453,6</b>	<b>2369,0</b>	<b>453,6</b>	<b>453,6</b>	<b>-</b>
<b>Namangan sh.</b>	<b>466,3</b>	<b>124,1</b>	<b>342,2</b>	<b>124,1</b>	<b>124,1</b>	<b>-</b>
<b>tumanlar:</b>						
<b>Mingbuloq</b>	<b>82,3</b>	<b>82,3</b>	<b>-</b>	<b>82,3</b>	<b>82,3</b>	<b>-</b>
<b>Kosonsoy</b>	<b>5,8</b>	<b>5,8</b>	<b>-</b>	<b>5,8</b>	<b>5,8</b>	<b>-</b>
<b>Namangan</b>	<b>3,8</b>	<b>3,8</b>	<b>-</b>	<b>3,8</b>	<b>3,8</b>	<b>-</b>
<b>Norin</b>	<b>1,0</b>	<b>1,0</b>	<b>-</b>	<b>1,0</b>	<b>1,0</b>	<b>-</b>
<b>Pop</b>	<b>20,6</b>	<b>2,5</b>	<b>18,1</b>	<b>2,5</b>	<b>2,5</b>	<b>-</b>
<b>To'raqo'rg'on</b>	<b>1933,3</b>	<b>9,7</b>	<b>1923,6</b>	<b>9,7</b>	<b>9,7</b>	<b>-</b>
<b>Uychi</b>	<b>4,6</b>	<b>4,6</b>	<b>-</b>	<b>4,6</b>	<b>4,6</b>	<b>-</b>
<b>Uchqo'rg'on</b>	<b>134,5</b>	<b>49,4</b>	<b>85,1</b>	<b>49,4</b>	<b>49,4</b>	<b>-</b>
<b>Chortoq</b>	<b>6,3</b>	<b>6,3</b>	<b>-</b>	<b>6,3</b>	<b>6,3</b>	<b>-</b>
<b>Chust</b>	<b>2,5</b>	<b>2,5</b>	<b>-</b>	<b>2,5</b>	<b>2,5</b>	<b>-</b>
<b>Yangiqo'rg'on</b>	<b>161,6</b>	<b>161,6</b>	<b>-</b>	<b>161,6</b>	<b>161,6</b>	<b>-</b>



## Qurilish ob'ektlari

Uy-joy qurilishi ming kv.m



2018 yil yanvar-dekabrda umumiy maydoni 1151,1 ming kvadrat metr bo'lgan 8677 ta uy-joy qurilishi amalga oshirildi, shu jumladan, qishloq joylarda 795,2 ming kvadrat metr bo'lgan 6284 ta uy-joy qurib bitkazildi.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Mas'ul:

**Б. Турсинов**

Telefon:

**(0371) 230-84-85**